



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)

68,0



**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da**

11 565,9




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

67,7




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- oktabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-sentabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra)

64,2



2024- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.




58,8

Soni, birlikda



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-sentabr)

2024- y.



52,0

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


55,0



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	23 781,7	100,0	112,1
tumanlar:			
Olot	534,9	2,2	109,7
Buxoro	848,0	3,6	110,0
Vobkent	1 027,6	4,3	119,3
G'ijduvon	1 950,2	8,2	110,0
Kogon	541,5	2,3	109,4
Qorako'l	714,8	3,0	109,6
Qorovulbozor	322,7	1,4	108,3
Peshku	874,8	3,7	109,0
Romitan	913,3	3,9	108,7
Jondor	861,5	3,6	110,2
Shofirkon	723,9	3,0	109,4
shaharlar:			
Buxoro sh.	6 475,7	27,2	113,4
Kogon sh.	620,4	2,6	109,1

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-sentabr)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro shahri	21 818,5	111,2
Qorovulbozor	16 053,3	106,1
Kogon shahri	9 545,3	107,6
Vobkent	6 868,9	117,1
Peshku	6 627,2	107,1
Kogon	6 355,6	107,1
G'ijduvon	6 009,7	108,2
Romitan	6 004,6	107,1
Olot	5 099,5	108,2
Buxoro	4 721,4	107,8
Jondor	4 617,1	108,3
Qorako'l	4 138,7	108,2
Shofirkon	3 869,3	108,3

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **67,7** foizni, shu jumladan, **37,8** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-sentabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-sentabr)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	23 781,7	100,0	112,1
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	721,4	3,0	116,9
Moliyaviy xizmatlar	3 349,8	14,1	109,2
Transport xizmatlari	3 642,3	15,3	109,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 304,0	13,9	110,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 487,8	27,3	112,4
Savdo xizmatlari	5 441,4	22,9	112,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	359,3	1,5	105,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 183,9	5,0	135,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	402,6	1,7	110,7
Ijara xizmatlari	362,5	1,5	103,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	460,2	1,9	115,9
Shaxsiy xizmatlar	454,0	1,9	108,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	144,7	0,6	101,8
Boshqa xizmatlar	771,8	3,3	110,1

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **27,3 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **96,7** foiz.



Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt-dan uch qismini, ya'ni **64,8** foizni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



Buxoro shahri	1 054,9	+9,9
G'ijduvon	689,9	+7,9
Vobkent	548,1	+32,3
Peshku	375,8	+6,9
Romitan	324,6	+7,4
Kogon	276,1	+11,7
Buxoro	274,0	+9,7
Jondor	269,2	+12,7
Qorako'l	257,5	+9,0
Shofirkon	254,7	+10,3
Olot	194,7	+10,4
Kogon shahri	175,3	+7,4
Qorovulbozor	146,3	+13,7


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ♦ O'sishi, % da


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,7** foiz.

Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **815,3** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **109,1** foizni tashkil etgan.




Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi (kamayishi), % da

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)




Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-sentabr, % da)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-sentabrda 92,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **61,7** foizni yoki **2 066,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan Qorovulbozor tumanida yuqori o'sish sur'ati **111,7** foizni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **77,3** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)

Buxoro shahri	969,0
Kogon	20,2
Qorako'l	19,5
G'ijduvon	16,2
Jondor	11,8
Buxoro	10,8
Romitan	9,9
Shofirkon	9,6
Peshku	7,9
Kogon shahri	7,6
Vobkent	6,7
Olot	4,9
Qorovulbozor	3,2



Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2024- yilning yanvar-sentabr** oylari davomida mazkur shaharda ushbu turdagi xizmat hajmi **969,0** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **81,8** foiziga yetdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmi telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **83,0 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Buxoro shahri	183,9	+24,8
G'ijduvon	80,1	+11,5
Jondor	50,0	+14,4
Buxoro	49,3	+12,6
Shofirkon	47,9	+14,5
Qorako'l	44,5	+12,0
Romitan	41,7	+19,2
Vobkent	41,0	+11,5
Peshku	33,6	+18,0
Kogon	29,2	+13,0
Olot	28,2	+12,2
Kogon shahri	23,6	+20,8
Qorovulbozor	12,8	+13,1


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-sentabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 46,5 foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)


Buxoro shahri	80,1	◆	+14,3
G'ijduvon	64,0	◆	+15,1
Buxoro	25,2	◆	+18,1
Qorako'l	23,2	◆	+18,5
Romitan	22,2	◆	+16,2
Peshku	22,1	◆	+17,8
Jondor	21,9	◆	+15,6
Vobkent	21,6	◆	+11,6
Shofirkon	20,9	◆	+14,9
Olot	19,8	◆	+15,9
Kogon	18,0	◆	+19,3
Kogon shahri	17,7	◆	+16,4
Qorovulbozor	4,3	◆	+17,0

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **36,1** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **33,3** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **12,5** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-sentabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **80,9** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-sentabr)

 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi (kamayishi), % da



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari

(2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **362,5** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **56,8** foizni tashkil etadi.

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **144,7** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **79,1** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.